QATAG‘ON QURBONLARI - KELAJAGIMIZ QAHRAMONLARI

Dang‘ara tuman 2-son texnikumi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Yunusaliyeva Dilafruz Bahodirovna

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asrda O‘zbekistonda sovet totalitar tuzumi tomonidan amalga oshirilgan siyosiy qatag‘onlar, istiqlol qahramonlari bo’lgan jadid bobolarimizning fojiali taqdiri yoritilgan. Shuningdek, jadidchilik harakati namoyondalarining millat ravnaqi,ilm-fan,ta’lim va manaviyatni rivojlantirish yo‘lidagi xizmatlari tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida qatag‘on qurbonlari xotirasini tiklash,ularning ilmiy-adabiy merosini o‘rganish va yosh avlodda tarixiy xotirani shakllantirish masalalariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: qatag‘on,totalitar tuzum,jadidchilik,tarixiy xotira ,ilmiy-adabiy meros

XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmida Turkiston o‘lkasida sovet hokimiyati davrida keng ko‘lamli siyosiy qatag‘onlar amalga oshirildi.

Mazkur davrda mustabid tuzum tomonidan mustaqil fikrlashga intilgan shaxslarga turli ayblar qo’yildi.

Qatag‘on siyosatining asosiy xususiyatlaridan biri jamiyatda qo‘rquv va ishonchsizlik muhitini shaklantirish edi. Odamlar o’z fikrini erkin bildirishdan,milliy tarix va qadriyatlar haqida ochiq gapirishdan cho’chiy boshladilar.Ziyolilarning taqib qilinishi esa ta’lim,fan ,adabiyot va madaniyat rivojiga jiddiy to‘sqinlik qildi.

Jadidlar, davlat arboblari,olimlar, yozuvchilar, shoirlar hamda milliy istiqlol g‘oyalarini ilgari surgan minglab insonlar ta’qib qilindi. 1938-yillardagi ommaviy repressiyalar qatag’on siyosatining eng og’ir bosqichi hisoblanadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishguncha qancha buyuk insonlarni hayoti qurbon bo‘ldi. Begunoh insonlar siyosiy ta’qibga uchrab ,qamoqqa olindi va surgun

qilindi. Ularning orasida shoir va yozuvchilar,davlat va jamoat arboblari ,o‘qituvchilar hamda oddiy xalq vakillari bor edi.

Ularning maqsad va vazifalari yangi usul maktablarini ochish: eskilikdan qochib ,dunyoviy fanlar (matematika,geografiaya,tarix)o‘qitiladigan zamonaviy maktablar ochish; milliy matbuotni rivojlantirish , gazeta, jurnallar chop etish va teatr sahna asarlari orqali xalqning ongini o‘stirish; yoshlarni o‘qitib, milliy davlatchilik va ozodlik g‘oyalarini shakllantirishdan iborat edi.

Xalqimizning asl farzandlari Mahmudxo‘ja Behbudiy , Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy , Cho‘lpon,Fitrat, Usmon Nosir kabi ijodkorlar “xalq dushmani” degan asossiz ayblovlar bilan jazolandi. Ular o’z asarlari orqali xalqni ilmga,ma’rifatga chorlagan edilar.

Mahmudho‘ja Behbudiy ma’rifatparvarlik ,maktab va teatr rivojiga katta hissa qo’shdi. Abdulla Avloniy esa ta’lim-tarbiya ,axloq va ma’naviyat masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Cho’lpon o’z ijodi orqali inson erkinligi,milliy o’zlik va xalq taqdiri masalalarini yoritdi. Abdulla Qodiriy o’zbek romanchiligining shakllanishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo’shdi.Uning “O’tkan kunlar “ va “Mehrobdan chayon”romanlari xalqning tarixiy hayoti,ijtimoiy munosabatlari va ma’naviy dunyosini badiiy aks ettirgan muhim asarlardir.

Tarix sahifasi jim yig‘lar bugun,
Xotira uyg‘onar qalblarda yana.
Ne-ne begunohlar ketdilar bir kun,
Orzular qolibdi armon-u g‘amda.
Vatan deb yashagan mard ajdodlarim,
Ilm-u ma’rifat bo‘ldi gunohi.
El uchun kuylagan pok insonlarning
So‘ldi hayot yo‘li qoldi nomlari.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach,tarixiy adolatni tiklash va qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 1-maydagi Farmoniga muvofiq 31-avgust sanasi “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni” deb belgilandi.

2002-yilda Toshkent shahrida Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi tashkil etilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qatag‘on qurbonlari yashagan mahallalaga ularning nomlari berilishini ta’kidladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda siyosiy qatag’onlar O‘zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan fojiali hodisalardan biridir.Bu jarayonda minglab insonlar ta’qib qilindi,ko’plab ziyolilar va ma’rifatparvarlar hayotdan mahrum etildi.Ularning yo‘qotilishi xalqimizning ilmiy ,adabiy va madaniy taraqqiyotiga jiddiy zarar yetkazdi.

Mustaqillik yillarida qatag‘on qurbonlari xotirasini tiklash ,ularning nomlarini e’zozlash va merosini o’rganish yo’lida amalga oshirilgan ishlar tarixiy adolatni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Karimov I.A “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” .Toshkent .1998 yil
2. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” Toshkent.1999 yil
3. Mahmudho‘ja Behbudiy “Tanlangan asarlar” Toshkent 2021 yil
4. “Qatag‘on shamoli “ hujjatli filmi 2006 yil
5 . Internet ma’lumotlari